RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ART-PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

Bo‘ltakova Roziya Xasan qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagogikasi oliy maktabi
bultakovar@mail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining art-pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modelni o‘quv jarayoniga joriy etish mexanizmi tahlil qilinadi. Diagnostik-motivatsion, mazmuniy-faoliyatli va refleksiv-korreksion bosqichlarning vazifalari, raqamli ijodiy topshiriqlar hamda baholash vositalari ko‘rsatiladi. Modelning amaliy jihati badiiy mahsulotni boshlang‘ich sinfdagi aniq ta’limiy vazifaga moslashtirish bilan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim muhiti; art-pedagogik qobiliyat; boshlang‘ich ta’lim; pedagogik model; raqamli portfolio*

Аннотация: *В статье рассматривается механизм внедрения педагогической модели развития арт-педагогических способностей будущих учителей начальных классов в цифровой образовательной среде. Раскрыты задачи диагностико-мотивационного, содержательно-деятельностного и рефлексивно-коррекционного этапов, цифровые творческие задания и средства оценивания. Практическая направленность модели определяется адаптацией художественного продукта к конкретной учебной задаче начальной школы.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда; арт-педагогические способности; начальное образование; педагогическая модель; цифровое портфолио*

Abstract: *The article examines the implementation of a pedagogical model for developing the art-pedagogical abilities of prospective primary school teachers in a digital learning environment. It describes the diagnostic and motivational, activity-based, and reflective stages, along with digital creative*

tasks and assessment tools. Its practical focus is the adaptation of artistic products to specific primary classroom objectives.

Keywords: *digital learning environment; art-pedagogical abilities; primary education; pedagogical model; digital portfolio*

Kirish

Boshlang‘ich ta’limga tayyorlanayotgan talaba san’at vositalarini bilishi bilan birga, ularni bolaga tushunarli ta’limiy faoliyatga aylantira olishi lozim. Raqamli muhit bunday faoliyatga tasvir, tovush, qisqa video va hamkorlikdagi tahrir imkoniyatini qo‘shadi. Biroq tayyor dizayn shablonidan foydalanishning o‘zi pedagogik natija bermaydi: raqamli mahsulotning dars maqsadiga mosligi, bolaning yoshi va bajaradigan amali ham oldindan belgilanadi.

Raqamli texnologiyalarni san’at bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ko‘paygan bo‘lsa-da, tayyorlanayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yaratgan badiiy mahsulotning darsdagi aniq o‘quv harakatiga qanday aylanishi asosiy metodik masala bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola shu masalani pedagogik modelning ichki bog‘lanishlari, uch bosqichli tatbiq tartibi va kuzatiladigan baholash dalillari orqali ochib beradi.

Mavzuning o‘rganilganligi va tadqiqot yondashuvi

UNESCOning o‘qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari doirasi hamda DigCompEdu texnologiyani pedagogik vazifa va kasbiy tayyorgarlik bilan bog‘laydi [1, 2]. Raqamli dizaynning san’at ta’limidagi o‘rnini tahlil qilgan González-Zamar va Abad-Segura mazkur yo‘nalishlar kesishishini ko‘rsatgan [3]. UNESCOning keyingi tahlili vositani o‘quvchi ehtiyojiga mos tanlashni, OECD esa uni ta’lim ekotizimining qismi sifatida ko‘rishni tavsiya etadi [4, 5].

Mahalliy tadqiqotlardan Zubaydullayev bo‘lajak o‘qituvchini art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini [9], Mustafayev esa oliy ta’lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini o‘rgangan [10]. Mazkur maqolaning alohida yo‘nalishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining badiiy g‘oyani raqamli mahsulotga, so‘ng bolalar uchun bajariladigan o‘quv vazifasiga aylantirishiga e’tibor qaratishdir.

Tahlilda muallifning pedagogik modeli amaliy tartibga keltirildi: maqsad va mazmun belgilandi, talabaning ijodiy faoliyati bilan raqamli vosita vazifasi muvofiqlashtirildi, yakuniy ish esa darsda foydalanish va refleksiya mezonlariga bog‘landi. Maqola pedagogik tizimning tatbiq metodikasini yoritadi; miqdoriy samaradorlik haqidagi xulosalar bu yerda ilgari surilmaydi.

Pedagogik modelning mazmuni va ishlash mexanizmi

Taklif etilayotgan amaliy ketma-ketlikda talaba raqamli mahsulotni avval ijodiy g‘oya sifatida ishlab chiqadi, keyin boshlang‘ich sinf dasturidagi mavzuga moslashtiradi. O‘qituvchi topshiriqni baholashdan oldin uning ta’limiy maqsadini, o‘quvchi bajaradigan harakatni va natijani tekshirish usulini belgilaydi. Shunday qilib, bezakli vizual materialdan ta’lim jarayonida ishlatiladigan didaktik vositaga o‘tish kuzatiladi.

Modelda maqsadli, mazmuniy, metodik, pedagogik shartlar, tashkiliy va natijaviy bloklar o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali yoritilgan. Amaliyotda bu bloklarni alohida jadval sifatida saqlashning o‘zi yetarli emas: har bir mashg‘ulotda maqsad, talaba yaratadigan mahsulot va baholash dalili oldindan moslashtiriladi. Masalan, dars maqsadi bolaning geometrik shakllarni farqlashi bo‘lsa, talabaning vazifasi chiroyli naqsh tasvirini tayyorlash bilangina tugamaydi. U shaklni ajratish, sanash yoki taqqoslashga undovchi savol va ko‘rsatmani ham yozishi kerak.

Raqamli vosita uch amaliy savol asosida tanlanadi. Birinchisi, u talabaning badiiy g‘oyasini ifodalash uchun qanday imkon beradi? Ikkinchisi, tayyorlangan mahsulot boshlang‘ich sinf o‘quvchisining faol harakatiga qanday sabab bo‘ladi? Uchinchisi, yaratilgan ishni qayta ko‘rib chiqish va pedagogik jihatdan baholash mumkinmi? Masalan, oddiy tasvir muharriri mustaqil illyustratsiya uchun yetarli, hamkorlik doskasi esa bir nechta talabaning namuna yig‘ishi va o‘zaro izoh berishi uchun qulay. Vosita tanlovini shu vazifalar bilan asoslash texnik yangilikka haddan tashqari e’tibor qaratishning oldini oladi. Raqamli hikoya, komiks va infografikani bo‘lajak pedagoglar tayyorgarligiga kiritish bo‘yicha tadqiqotda ularni qabul qilish va ishlatishga tayyorgarlik masalasi o‘rganilgan [8].

Tatbiqdan oldin internet, qurilmalar va talabalar foydalanadigan dasturlar ro‘yxati aniqlanadi. Barcha talabada bir xil texnik imkoniyat bo‘lmasa, yakuniy mahsulot uchun bir nechta teng qiymatli yo‘l taklif etiladi: onlayn plakat, oflayn taqdimot yoki suratga olingan qo‘l mehnati mahsuloti. Baholash mezoni tanlangan ilovaning qimmat yoki murakkabligiga emas, san’at elementi va o‘quv maqsadining uyg‘unligiga qo‘yiladi. Guruh ishida esa kim mavzuni tanlagani, kim tasvir tayyorlagani, kim dars topshirig‘ini yozgani alohida qayd etiladi. Bu har bir talabaning mualliflik hissasini ko‘rsatadi.

Modelning mantiqiy markazida “pedagogik maqsad — badiiy g‘oya — raqamli ifoda — o‘quvchi faoliyati — refleksiya” aloqasi turadi. Ushbu qismlarning istalgani uzilsa, tayyor mahsulotning ta’limiy qiymati pasayadi. Masalan, plakat rang va kompozitsiya jihatidan muvaffaqiyatli bo‘lsa ham, bolaga undagi ma’lumotdan foydalanib biror xulosa chiqarish topshirilmasa, u

ko‘rgazmali bezak sifatida qoladi. Shuning uchun o‘qituvchi avval o‘quvchining qaysi tushunchani egallashini, keyin bu maqsadni qaysi art vositasi bilan ochishini belgilaydi.

Modelni mashg‘ulotlarga joriy etish bosqichlari

Bosqich	Talaba faoliyati	Tekshiriladigan dalil
Diagnostik va motivatsion	Dastlabki ish, qiziqish va raqamli tajribani aniqlash	Boshlang‘ich ish, anketa, suhbat qaydi
Mazmuniy va faoliyatli	Badiiy g‘oyani raqamli dars materialiga aylantirish	Loyiha va bolaga beriladigan topshiriq
Refleksiv va korreksion	Fikr asosida tahrir qilish, o‘sishni tahlil etish	Dastlabki-yakuniy variantlar, portfolio

Birinchi bosqichda “Men va raqamli ijod” topshirig‘i orqali talabaning san’atga munosabati va raqamli vositadan foydalanish tajribasi aniqlanadi. Talaba o‘zi tanlagan tasvir yoki hikoyaning boshlang‘ich sinfdagi qaysi mavzuga xizmat qilishini izohlaydi. O‘qituvchi tayyor ishlanmaga baho qo‘yish bilan cheklanmay, talabaning qiziqishi, qiyinchiligi va yordamga ehtiyojini qayd etadi. Shu diagnostika keyingi topshiriqning murakkablik darajasini tanlashga yordam beradi.

Ikkinchi bosqichda raqamli hikoyalash va fanlararo loyiha markaziy o‘rin egallaydi. Masalan, milliy naqshdagi geometrik shakllarni o‘rgatishga mo‘ljallangan dars uchun talaba namunalarni saralaydi, ko‘rgazmali material tayyorlaydi va bolalarga shakllarni topish hamda taqqoslash topshirig‘ini loyihalaydi. O‘quvchi mahsulotga faqat tomoshabin sifatida qaramaydi: u tasvirga tayangan holda kuzatadi, javob beradi va o‘z chizmasini yaratadi. Bu yerda san’at mazmuni, matematik tushuncha va o‘quvchi harakati bir vazifada birlashadi.

Raqamli hikoya topshirig‘ida mavzu va syujet tanlanadi, sahnalar rejasi tuziladi, yoshga mos matn va tasvirlar yaratiladi, so‘ng material sinfdoshlarning mulohazalari bilan tahrirlanadi. Har bir sahna dars maqsadiga xizmat qilishi, audio va matn bolaning idrokiga mos bo‘lishi kerak. Tanlangan platforma pedagogik maqsadga qarab o‘zgarishi mumkin: Canva yoki taqdimot muharriri vizual sahifalar uchun, Padlet guruh fikri uchun, elektron portfolio esa jarayonni qayd etish uchun qo‘llanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari bilan o‘tkazilgan tadqiqotda raqamli hikoyani bolalar uchun mos didaktik faoliyatga aylantirish bosqichlari tasvirlangan [6].

Uchinchi bosqichda talaba dastlabki g‘oya, tahrirlar va yakuniy mahsulotni bir joyda jamlaydi. O‘z-o‘zini baholash savollari oddiy va tekshiriladigan bo‘lishi

lozim: qaysi dars maqsadi bajarildi, o‘quvchi qanday amal qiladi, qaysi element ortiqcha, navbatdagi ishlovda nima o‘zgaradi? Tengdoshlar “ikki kuchli jihat va bir taklif” tartibida fikr bildirishi mumkin. O‘qituvchi ushbu fikrni keyingi individual topshiriqqa bog‘laydi.

Bosqichlar o‘rtasida teskari aloqa bo‘lishi kerak. Diagnostika muayyan talaba uchun vazifaning hajmini belgilaydi; mazmuniy ish paytidagi kuzatish esa qo‘shimcha yordam zarur bo‘lgan joyni ko‘rsatadi. Portfolio yakunda shunchaki fayllar to‘plami emas, dastlabki ish, olingan mulohaza, kiritilgan tahrir va yakuniy mahsulot orasidagi izni saqlaydi. Bunday tartib talabaning san’atga moyilligini uning pedagogik qaror qabul qilish qobiliyati bilan birga ko‘rish imkonini beradi.

Amaliy mashg‘ulot namunasi va baholash

Mavzu sifatida 2-sinf matematikasidagi “Geometrik shakllar” olinishi mumkin. Talabaga mahalliy bezak namunasini o‘rganish, undagi doira, uchburchak va to‘rtburchaklarni ajratish, ularni sodda interaktiv tasvirda belgilash hamda uchta savol tuzish vazifasi beriladi. Savollar turlicha kognitiv harakatni qamrashi kerak: topish, taqqoslash va yangi naqsh yaratish. Dars rejasi “ko‘raman — ajrataman — izohlayman — chizaman” ketma-ketligida yoziladi. Shu tariqa badiiy obyektdan foydalanish matematika mazmunini bezashga emas, o‘quvchining kuzatish va tushunchani amalda qo‘llashiga xizmat qiladi.

Birinchi qadamda talaba o‘quv maqsadini bitta tekshiriladigan gapda ifodalaydi. Ikkinchi qadamda tasvir yoki hikoyaning aynan qaysi qismi shu maqsadga xizmat qilishini belgilaydi. Uchinchi qadamda raqamli dasturda dastlabki namunani yaratadi. To‘rtinchi qadamda sinfdoshidan topshiriqni o‘quvchi nuqtayi nazaridan bajarib ko‘rishni so‘raydi. Beshinchi qadamda tushunarsiz ko‘rsatma, ortiqcha bezak yoki yoshga mos kelmaydigan matn qayta ishlanadi. Yakunda dastlabki va tahrirlangan variant portfolio ichida birga saqlanadi. Shu hujjat ijodiy va pedagogik qarorning qanday o‘zgarganini dalillaydi. Arts-integratsiya bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilar tajribasini o‘rgangan ish maktab amaliyotidagi qo‘llash sharoitlari va to‘siqlarini ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi [7].

Mahsulotni to‘rt yo‘nalishda tekshirish tavsiya etiladi. Pedagogik moslik: dars maqsadi va bolaning bajaradigan amali aniq yozilganmi? Estetik sifat: tasvir ma’noni ravshanlashtiradimi va idrokka ortiqcha yuk bermaydimi? Raqamli bajarilish: matn o‘qiladimi, ovoz tushunarlimi, fayl sinfdagi qurilmada ochiladimi? Refleksiya: talaba olingan fikr asosida o‘zgartirgan qismini asoslay oladimi? Har bir yo‘nalishda baholovchi dalilni, masalan, aniq sahifa, savol yoki

tahrir tarixini ko‘rsatishi lozim. Shunda baho umumiy taassurotga emas, ko‘rinadigan ishga tayanadi.

Amaliyotda tasvir ko‘pligi, dars maqsadining mavhumligi, tayyor shablonni o‘zgartirmasdan topshirish va bolaga murakkab ko‘rsatma berish uchrashi mumkin. Bunday holatda “Har bir element qaysi savolga xizmat qiladi?” degan savol bilan ortiqcha qism chiqariladi. Matn o‘quvchining yoshiga mos qisqa gaplarga bo‘linadi. O‘qituvchi tayyor javobni bermasdan, mahsulotning bir versiyasini kichik guruhda sinashga undaydi. Talabadan ko‘rilgan muammo va kiritilgan tuzatishni ikki ustunli qaydda ko‘rsatish so‘raladi. Bu jarayon baholashni mahsulotni yaxshilash vositasiga aylantiradi.

Modelni darsda tatbiq etish uchun “Boshlang‘ich sinfga mo‘ljallangan raqamli art-dars materiali” topshirig‘i tavsiya etiladi. Talaba (1) sinf va mavzuni, (2) ta’limiy maqsadni, (3) san’at elementi va uning vazifasini, (4) raqamli vositani tanlash sababini, (5) o‘quvchining faol harakatini, (6) natijani aniqlash usulini yozadi. So‘ng yakuniy materialni taqdim etib, tengdoshlar fikriga ko‘ra kamida bitta tuzatish kiritadi.

Baholashda to‘rtta mezonni ajratish maqsadga muvofiq: badiiy-estetik mazmunning ravshanligi; raqamli yechimning qulayligi va mualliflik mas’uliyati; materialning dars maqsadiga va yoshga mosligi; talabaning tanlovi hamda tuzatishlarini tushuntira olishi. Har bir mezon bo‘yicha “mustaqil bajaradi”, “qisman yordam bilan bajaradi” va “hali namoyon etmaydi” kabi kuzatiladigan tavsiflar oldindan berilsa, talaba faqat natijani emas, o‘z rivojlanish yo‘lini ham ko‘radi.

Raqamli material ishlanganda tasvir va musiqa manbasi qayd etilishi, o‘quvchining shaxsiy ma’lumotlari ochiq platformaga joylanmasligi va sun’iy intellektdan foydalanilgan bo‘lsa uning qaysi qismda qo‘llangani ko‘rsatilishi kerak. Bunday tartib amaliy vazifani takrorlash va mualliflik hissasini baholashni osonlashtiradi. Modelning muvaffaqiyatini platforma nomlari bilan emas, pedagogik vazifa bilan bog‘langan mahsulot va uning izohlanishi bilan o‘lchash lozim.

Taklif etilgan namunani ona tili yoki tabiatshunoslikka ko‘chirishda badiiy mahsulot turi saqlanishi shart emas. Ona tilida qisqa voqea matnini davom ettirish, tabiiy fanlarda tasvirni kuzatish va tasniflash ko‘proq mos kelishi mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining raqamli hikoya va fanlararo topshiriq bilan ishlash tajribasi xalqaro tadqiqotda ham tasvirlangan [6]. San’at integratsiyasini o‘rgangan boshqa ish maktab amaliyotidagi tashkiliy to‘siqlarni e’tiborga olish zarurligini ko‘rsatadi [7].

Muhokama

Maqoladagi namunaviy ssenariy bir mavzuda pedagogik model qanday ishlashini ko‘rsatadi, lekin barcha fanlarga tayyor andoza bo‘la olmaydi. Ona tili darsida hikoya tuzish va ifodali o‘qish, tabiatshunoslikda kuzatish va tasvirni tasniflash ko‘proq mos bo‘lishi mumkin. Har bir holatda talaba badiiy faoliyat turini fan maqsadidan kelib chiqib belgilashi lozim. Shuningdek, aloqa sifati past muassasada oflayn taqdimotlar va qog‘ozga ishlangan rasmlarning raqamli nusxalari bilan ham xuddi shu pedagogik ketma-ketlikni bajarish mumkin. Modelning ko‘chiriladigan qismi platforma nomi emas, maqsad–faoliyat–dalil–refleksiya orasidagi mantiqiy bog‘lanishdir.

Modelda diagnostika, ijodiy faoliyat va refleksiya ketma-ketligi bir-birini to‘ldiradi. Diagnostikasiz bir xil topshiriq turli tayyorgarlikdagi talabalar uchun nomutanosib bo‘lishi mumkin. Faqat mahsulot yaratish bilan tugallangan darsda esa talaba pedagogik tanlovining sababini anglash imkonidan mahrum bo‘ladi. Shuning uchun har bir ijodiy topshiriqdan keyin uni bolalarning ta’limiy harakati bilan bog‘lovchi qisqa izoh va tahrir bosqichi kiritiladi.

Ushbu tatbiq tavsifi raqamli va san’at mazmunini o‘zaro bog‘lash haqidagi xalqaro doiralarga yaqin [1–3], ammo konkret dars topshirig‘i, milliy naqshga oid misol va portfolio ishlash tartibi tadqiqotning mahalliy pedagogik sharoitiga moslashtirilgan. Modelni boshqa oliy ta’lim muassasasiga ko‘chirishda mavjud qurilmalar, internet sifati, talabalar tayyorgarligi va boshlang‘ich ta’lim fanlari dasturiga qarab vosita hamda topshiriqlar yangidan tanlanishi kerak.

Modelning boshqa guruhga tatbiq etilishi uchun o‘qituvchi ayni mahsulotni takrorlashni talab qilmaydi; o‘quvchi faoliyati va baholash dalili o‘rtasidagi bog‘liqlikni saqlaydi. Raqamli hikoya, komiks va infografikadan foydalanishga tayyorgarlik bo‘yicha tadqiqot texnologiyani qabul qilishning o‘zi ham alohida pedagogik masala ekanini ko‘rsatadi [8]. Shu sababli texnik tayyorgarligi past guruhda avval sodda vositalar, keyin murakkab multimedia topshiriqlari qo‘llanadi.

Xulosa

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining art-pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish modeli uch bosqichli amaliy sikl orqali qo‘llanishi mumkin: boshlang‘ich holatni aniqlash, pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan raqamli art-mahsulot yaratish va natijani refleksiya asosida qayta ishlash. Maqolaning amaliy taklifi har bir raqamli mahsulotga dars maqsadi, o‘quvchi harakati hamda baholash dalilini biriktirishdir. Model samaradorligiga oid miqdoriy xulosa alohida tajriba ma’lumotlari asosida baholanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris, 2018. https://www.unesco.org/en/articles/unesco-ict-competency-framework-teachers

2. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. European Commission, 2017. https://doi.org/10.2760/159770

3. González-Zamar M.-D., Abad-Segura E. Digital Design in Artistic Education: An Overview of Research in the University Setting. Education Sciences, 2021, 11(4), 144. https://doi.org/10.3390/educsci11040144

4. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023. https://www.unesco.org/gem-report/en/publication/technology

5. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/c74f03de-en

6. Echegoyen-Sanz Y., Morote Á., Martín-Ezpeleta A. Transdisciplinary Education for Sustainability: Creativity and Awareness in Teacher Training. Frontiers in Education, 2024, 8:1327641. https://doi.org/10.3389/feduc.2023.1327641

7. Hipp J., Sulentic Dowell M.-M. Challenges and Supports to Elementary Teacher Education: Case Study of Preservice Teachers' Perspectives on Arts Integration. Journal for Learning through the Arts, 2019, 15(1). https://doi.org/10.21977/D915144538

8. Al-Abdullatif A.M. Towards Digitalization in Early Childhood Education: Pre-Service Teachers' Acceptance of Using Digital Storytelling, Comics, and Infographics in Saudi Arabia. Education Sciences, 2022, 12(10), 702. https://doi.org/10.3390/educsci12100702

9. Zubaydullayev O'.R. Bo'lajak o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO7617fO1.file

10. Mustafayev Sh.N. Oliy ta'lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini rivojlantirish. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2023. https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO8424fO1.file